MINTAQA SANOATI RIVOJLANISHI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

N.A.Allasheva
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21935108

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoati rivojlangan ilg‘or mamlakatlarda aynan mana shunday chora-tadbirlar vositasida konsorsiumlar ko‘rinishidagi davlat va biznes-tuzilmalarining integratsiyalashgan tizimlari haqida ma'lumotlar keltirilib otilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об интегрированных системах государственных и бизнес-структур в виде консорциумов в промышленно развитых развитых странах именно с помощью таких мер.*

Abstract.*This article presents information about the integrated systems of state and business structures in the form of consortia in advanced industrialized countries through just such measures.*

Kalit so’zlar. *Sanoat, rag‘batlantirish, mehnat bozori, mexanizm, innovatsion.*

Ключевые слова*.Отрасль, стимулирование, рынок труда, механизм, инновационный.*

Key words*.Industry, incentives, labor market, mechanism, innovation.*

Mintaqa sanoatini rivojlantirish jarayonlarini tartibga solish mexanizmlari ichida ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ko‘rish o‘zining sinergetik samarani namoyon qilish xususiyati bilan ajralib turadi. Bu keng qamrovli chora-tadbirlar majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- globallashuv jarayonlari sharoitida xalqaro integratsiya masalalarini ham o‘zi ichiga oluvchi sanoat rivojlanishining iqtisodiy va huquqiy muhitini takomillashtirish;
- sanoat infratuzilmasining maqsadli rivojlanishi nazarda tutuvchi sanoat korxonalaridagi boshqaruv sifatini oshirish;
- yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali xususiy tashabbuskorlik va biznesni rivojlantirish;
- jamiyat va uning a’zolarini oliy ta’lim muassasalarini hududlardagi oliy ta’lim muassasalarini mintaqaviy sanoatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi kreativ markazlar sifatida olib qarash bilan mavjud bilimlardan samarali foydalanish hamda yangi bilimlarni hosil qilishga qobiliyatini shakllantirish.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning tartibga solish yo‘nalishlari ichida ijtimoiy-korporativ mexanizmlardan foydalanish ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Bu mexanizmlarga butun mamlakat sanoat tarmog‘i uchun yagona bo‘lgan mexanizmlar kiritilib, bunda huquqiy, moliyaviy, texnik va kadrlar salohiyatini tartibga solish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi. Ularning har biri o‘z mohiyatidan kelib chiqib mos holdagi ijtimoiy-korporativ institutlarning faol ishtirok etishiga tayanadi.

Mamlakatimizda, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy sanoat tarmog‘ining so‘nggi bir necha yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalarining tahlili ko‘rsatadiki, sanoat rivojlanishini boshqarish va tartibga solish uchun ma’sul bo‘lgan davlat institutlarining faoliyati sifatini oshirish talab etiladi. Bu ayniqsa, sanoat sohasiga innovatsion, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot talablarining joriy qilinishi zarur bo‘lgan sharoitlarda juda muhimdir. Chunki mintaqa

sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda tashabbuskorlik bilan ish ko‘ra oladigan kadrlarning kamligi, borlari ham mavjud imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanlishda zarur resurslarga ega emasligi kabi subyektiv va obyektiv omillar mazkur salbiy holatlarga sabab bo‘lmoqda. Eng muhimi - bu sanoat korxonalarining raqobatbardoshlilik darajasi ortishiga katta to‘siqdir.

World Economic Forum da ko‘rsatib o‘tilishicha, global raqobatbardoshlilikni 12 o‘lchamli indeks orqali baholash maqbul bo‘lib, bu indeksni aniqlashda quyidagi raqobatbardoshlilik omillari tayanch ko‘rsatkichlar sifatida olib qaraladi:

- rivojlanish institutlari;
- sanoat sohasini qo‘llab-quvvatlash uchun infratuzilma;
- makroiqtisodiy muhit;
- sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim;
- oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimi;
- tovar va xizmatlar bozorlarining samaradorligi;
- mehnat bozori samaradorligi;
- moliyaviy bozor rivojlanganligi;
- sanoatning texnologik rivojlanish darajasi;
- ichki sanoat bozorining hajmi;
- biznesni tashkil etish va boshqarish darajasi (Doing business);
- sanoatning innovatsion salohiyati[1].

Lekin aytib o‘tish kerakki, global raqobatbardoshlilik indeksini aniqlashning keltirilgan ko‘rsatkichlari so‘nggi bir necha yillar davomida innovatsion va raqamlashtirish jarayonlarining keng yoyilishi natijasida quyidagi omillarga transformatsiyalanishi yuz berdi.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishi yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom-ashyo, butlovchi qismlar va materiallarni yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning yirik jamlanmasini namoyon qiladi. Shuning uchun ulardan ba’zilarining raqobatbardoshliligini oshirish maqsadida qo‘llab-quvvatlash, boshqalariga esa lozim darajada e’tibor bermaslik maqsadga muvofiq emas – chunki har qanday korxonaning raqobatbardoshliligi uning ishlab chiqarish-texnologik zanjirini tavsiflaydigan ko‘plab omillar doirasiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan kelib chiqib, sanoat tarmog‘idagi korxonalarning butun ishlab chiqarish zanjiridagi qiymatni oshirishga tizimli yondashuv zarur bo‘ladi. Shuningdek, sanoat korxonalari turli xil bo‘limlaridagi ishlab chiqarish-texnologik zanjirlar o‘zaro bog‘langan bo‘lishi zarur. Aks holda mazkur zanjirda texnologik uzilish yuzaga keladi va butun zanjirning “falaj”likka uchrash xavfi paydo bo‘ladi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq holda turli xildagi u yoki bu sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini belgilab beradi. Masalan, yetakchi xalqaro Deloitte auditorlik kompaniyasining tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, dunyoda sanoati eng rivojlangan yetakchi mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya) uchun bunday eng muhim omillar bo‘lib innovatsion siyosat va infratuzilma, inson kapitali, ishlab chiqarish-texnologik infratuzilma va me’yoriy-huquqiy tizim sanaladi. Mazkur mamlakatlar uchun muammoli omillar bo‘lib esa birinchi navbatda nisbatan yuqori ishlab chiqarish sarflari, energetika sohasidagi masalalar hisoblanadi. Shu bilan birga Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda esa aksincha, ishlab chiqarishning ularga nisbatan

[1]The Global Competitiveness Report 2016–2017. URL: https:// www.weforum.org/reports/the-global-competitivenessreport-2016–2017–1.


ancha past sarflari (masalan, ishchi kuchining arzonligi kabi) bu mamlakatlarda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshliligini belgilovchi omillar deb qaraladi. Barcha bu mamlakatlarga nisbatan taqqoslaganda esa Janubiy Koreyada raqobatbardoshlilikni belgilovchi omillarning eng muvozanatlashgan tizimi shakllangan: o‘z ahamiyatliligi bo‘yicha ularning barchasi o‘rtachadan yuqori deb baholanadigan ekspertli bahoga egadirlar. Iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq holda turli xildagi u yoki bu sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini belgilab beradi. Masalan, yetakchi xalqaro Deloitte auditorlik kompaniyasining tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, dunyoda sanoati eng rivojlangan yetakchi mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya) uchun bunday eng muhim omillar bo‘lib innovatsion siyosat va infratuzilma, inson kapitali, ishlab chiqarish-texnologik infratuzilma va me’yoriy-huquqiy tizim sanaladi. Mazkur mamlakatlar uchun muammoli omillar bo‘lib esa birinchi navbatda nisbatan yuqori ishlab chiqarish sarflari, energetika sohasidagi masalalar hisoblanadi. Shu bilan birga Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda esa aksincha, ishlab chiqarishning ularga nisbatan ancha past sarflari (masalan, ishchi kuchining arzonligi kabi) bu mamlakatlarda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshliligini belgilovchi omillar deb qaraladi. Barcha bu mamlakatlarga nisbatan taqqoslaganda esa Janubiy Koreyada raqobatbardoshlilikni belgilovchi omillarning eng muvozanatlashgan tizimi shakllangan: o‘z ahamiyatliligi bo‘yicha ularning barchasi o‘rtachadan yuqori deb baholanadigan ekspertli bahoga egadirlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy sanoatiga nisbatan olib qaraganda esa, aytib o‘tish kerakki, mahalliy sanoat mahsulotlari raqobatbardoshliligi ortishiga quyidagi omillar to‘siq bo‘lmoqda:

1. Ishlab chiqarish-texnologik bazaning eskirganligi;
2. Yuqori malakali inson kapitalining yetishmasligi;
3. Innovatsion siyosatning unchalik rivojlanmaganligi;
4. Innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
5. Me’yoriy-huquqiy tizimning samaradorligi pastligi;
6. Pul-kredit tizimining sanoatdagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi sustkashligi yoki ortiqcha byurokratiyaga yo‘l qo‘yilishi.

Mintaqa sanoati rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash amaliyotida hozirgi kunlarda shu xususiyat yaqqol ko‘zga tashlanadiki, bunda sanoat rivojlanishini tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlariga qaraganda moliyaviy-iqtisodiy choralar bilan qo‘llab-quvvatlash ustunlik qiladi. Buning asosiy sabablari bo‘lib sanoat korxonalarida tashabbuskor, innovativ kadrlarning yetishmasligi, yangiliklarni joriy qilishning uzluksiz jarayon sifatida olib borilmasligi, kadrlarning uzluksiz malaka oshirish va o‘rnini yanada yuqori malakali kadrlar bilan to‘ldirib borish tizimi shakllanmaganligi kabilar hisoblanadi. Bir tomondan, sanoat korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy choralar bilan qo‘llab-quvvatlash ularning faoliyatini tezda kerakli yo‘nalishga solib yuborishga imkon tug‘dirsada, lekin bunday choralarda uzluksiz foydalanaverish samarasizdir. Chunki bunday choralar vaqtinchalik samaraga ega bo‘lib, oxir-oqibatda mintaqaviy sanoat mahsulotining raqobatbardoshliligi ham ichki, ham tashqi bozorlarda ham tushib ketadi.

Shuning uchun butun sanoat tarmog‘ini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kanallarini institutsional jihatdan belgilab olish muhim bo‘lib, bu davlat-xususiy sherikchiligi shaklidagi tashkiliy-boshqaruv choralari bilan amalga oshirilganda ancha samarali natijalarga olib keladi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining global raqobatbardoshlilikka erishish omillari.

Sanoati rivojlangan ilg'or mamlakatlarda aynan mana shunday chora-tadbirlar vositasida konsorsiumlar ko'rinishidagi davlat va biznes-tuzilmalarining integratsiyalashgan tizimlari mavjud. Ular mazkur mamlakatlardagi sanoatning texnologik rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab beradi, jumladan, milliy sanoat mahsulotlari raqobatbardoshlilining ortishi uchun qulay sharoit yaratadilar, mana shu bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida investitsiyalarni jalb qilib, davlat va biznes o'rtasida taqsimlash yo'li bilan tavakkalni pasaytirishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Yo''ldoshev N.Q., Xodjamuratova G.Yu. Strategik menejment. O'quv- uslubiy majmua. -T.: TDIU, 2018.- 217 b.
2. Абрамов В.С., Абрамов С.В.Стратегический менеджмент в 2 ч. Част 1. Сущност и содержание. Учебник и практикум для бакалавриат Москва Издателство Юрайт 2017

3. Баранчеев В.П. Управление инновационными проектами. –М, 2007 г. Пригожин А.И. Методы развития организаций – М., 2003г.
4. Бойко А.Н.и др. Опыт инновационного сотрудничества стран ЕС и СНГ/https://e-cis.info/cooperation/3121/77447.
5. Гончаренко Л. П., Артуюнов Ю. А. Инновационная политика –М.: КНОРУС, 2009.-352.;
6. Государственная поддержка инноваций в Финляндии [Электронный ре-сурс]. – Режим доступа:http://www.nc cg.ru /site.xp/04905 4057052 124.html.
7. Жиц Г.И. Инновационный потенциал и экономический рост – Саратов, 2000 г.
8. Зуб А.Т. Стратегический менеджмент 4-е изд., пер. и доп. Учебник и практикум для академического бакалавриата Москва Издателство Юрайт 2015
9. Кондратьев В.Б. Глобальная обрабатывающая промышленность [Электронный ресурс]. http://www. perspektivy.info/rus/ekob/globalnaja_obrabatyvajushhaja_promyshlennost_2 013-06-11.htm.